

**O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA CHAQALOQ BILAN
BOG‘LIQ URF-ODATLARGA OID LEKSIKA**

*O‘razboyev Olimjon Rustam o‘g‘li
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat
universiteti magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqola o‘zbek va qoraqalpoq xalqining bola parvarishiga oid rasm-rusmlar talqiniga bag‘ishlangan. Oilada farzand dunyoga kelishi bilan unga qo‘yilgan ism hamda uning tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan odatlar ga ushbu maqolada to‘xtalangan.*

Kalit so‘zlar: *Beshik to‘yi, qosqon, quvoz to‘shakcha, qo‘lbog‘lar, govrapo‘sh, Tushov kesish, beshik, egmoch*

Annotation: *This article is devoted to the interpretation of pictures of the Uzbek and Karakalpak peoples about childcare. In familiy, the name given to a child upon birth and the customs related to his upbringing are discussed in this article.*

Key words: *Crib wedding, cot, cot bed, handrails, govraposh, Tushov cut, crib, egmoch*

Аннотация: *Данная статья посвящена интерпретации изображений узбекского и каракалпакского народов об уходе за детьми. В Оиале в этой статье рассматриваются имя, данное ребенку при рождении, и обычаи, связанные с его воспитанием.*

Ключевые слова: *Детская кроватка свадебная, детская кроватка, детская кроватка, поручни, говрапош, Тушовский крой, детская кроватка, экмоч.*

Xalqimizning marosimlari xilma-xildir va ularning nishonlanish vaqtlari bor. Shu jumladan, *Beshik to‘yi* chaqaloqni birinchi marta beshikka solish bilan bog‘liq marosimdir. Bu marosim xalqimizning eng qadimgi va eng keng tarqalgan

marosimlaridan biridir. Bu to‘yning chaqaloq tug‘ilishining 7-9 kunida o‘tkaziladi. Beshik to‘yi Yaqin va O‘rta Sharq, O‘rta Osiyo xalqlari jumladan, O‘zbek oilalarida to‘ng‘ich farzand tug‘ilishi sharafiga o‘tkaziladigan tantanali marosimdir. Bu to‘y har bir viloyatda, xar xil tarzdir. Beshik-chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun mo‘ljallangan yo‘g‘ra oyoqli moslamadir. Tut, tol va yog‘ochdan yasaladi, uzunligi 1-1,5 m va balandligi 50 sm dan 60 sm gacha. Beshikning tuzulishi : to‘rt tadan sakkizta ustbozi (pombozi) va takdozi (girdbozi) bilan o‘ralgan, bola yotishi uchun takbozilar ustiga yupqa taxtachalar o‘rnatiladi(unda tuvak uchun maxsus joy ajratiladi). Beshikning ikki tomonidagi yarim doira shaklida yo‘rg‘a (oyoq) lariga uzunligi 1,2m eni 8-10 sm bo‘lgan egmoch (qosqon) o‘rnatiladi, egmochga dasta biriktiladi. Dastaning ikkala tomoniga kubbar yasaladi. Bolaning bosh va oyoqlarini muhofaza qilish uchun egmochlarning ichiga boshlog‘i va bag‘alak cho‘plar o‘rnatiladi. Beshik naqshlar bilan bezatiladi yoki rang-barang bo‘yoqlar bilan bo‘yaladi, so‘ng ba‘zan lok surtiladi. Bolani belash uchun ip yoki shoyi matodan maxsus tikiladigan abzallar (*quvoz to‘shakcha, taglik ko‘rpacha, yostiqlar, qo‘lbog‘lar, govrapo‘sh*) ishlatiladi. Beshikda yotgan bolaning tagi quruq va toza turadi, beshikning bir maromda tebranishiga ona allasining hamohangligi beshikdagi bolaga yaxshi ta‘sir etadi, uning tinch osuda uxlashini, ruhan sog‘lom yaxshi rivojlanishini ta‘minlaydigan. Beshik qadimdan o‘zbek, tojik, turkman, qoraqalpoq, qirg‘iz va boshqa sharq xalqlari orasida keng tarqalgan.

O‘zbek xalqlarida beshik chaqaloqning ona qarndoshlari-bobosi, buvisi, tog‘a va xolalari tomonidan qilingan. Beshik udumi bilan bog‘liq chaqaloqqa barcha kerakli buyumlar tayyorlangan. Dasturxoniga non, patir va anvon shirinliklar tugilgan, shuningdek unga yana o‘yinchoqlar (qiz bo‘lsa ko‘proq o‘yinchoqlar qoyilgan va chaqaloqning bobo, buvisi va ota-onasiga sarpo qo‘yiladi. Bezatilgan beshik, sovg‘alar arava(mashina) ga yuklab, karnay – surnay va childirmalar jo‘rligida olib boriladi. Mehmonlar kutib olinganda, niyatlari oq bo‘lishi, bolaga baxt tilash ramzi sifatida ularning yuzlariga un surib qabul qilinadi. Shu vaqtning o‘zida boshqa xonada doya buvi boshchiligida barcha irim

sirimlar ijro etilib, chaqaloqni beshikka belash marosimi (odatda, bolani beshikka ko'p bolali ayol belagan) o'tkazilgan. Marosim oxirida yaqin qarindoshlar chaqaloq huzuriga, yuz ko'rarga sovg'a berib, beshik ustiga shirinliklar sohib baxt tilaydilar. *Beshik to'yi* (gavorabandon (beshikka bog'lash) marosimi, odatda, *dushanba* yoki juma kunlarida uyushtiriladi. Buning ham qat'iy tartibi bor: eng oldinda yog'och oyoqqa minib, qo'lida bayroq bilan raqsga tushganlar va karnaychilar-surnaychilar, ular ketidan boshlariga sovg'a salom solinib dasturxonga o'ralgan la'li (patnis) ko'targan ayollar va orqada yangi beshikni yelkasiga ko'targan beshikbardor tizilishib, karnay-surnay navolari ostida kirib kelishadi. Kelgan mehmonlarni un surtish bilan kutib oladilar, bolaning baxti oppoq bo'lsin degan niyatda.

Turli viloyatlarda marosim o'zicha xususiyatlarga ega bo'ladi va oilaning boyligi darajasiga bog'liq bo'ladi: o'ziga to'q oilalar odatda bu to'yni katta ko'lamda o'tkazadi, kambag'al oilalar esa uni kamtarona nishonlaydilar. Beshik va chaqaloq uchun barcha zarur andomlar chaqaloq onasining qarindoshlari tomonidan beriladi. Dasturxonga non, shirinliklar va o'yinchoqlar o'rab beriladi. Chaqaloqning ota-onasiga, uning bobo-buvilariga sovg'alar tayyorlanadi. Boy bezatilgan beshik, dasturxonlar va sovg'alar transport vositasiga qo'yilib, mehmonlar bilan birgalikda, karnay-surnay va nog'ora sadolari ostida chaqaloqning ota-onasi uyiga jo'natiladi. An'anaga ko'ra olib kelingan beshikni avval chaqaloqning bobosi o'ng yelkasiga qo'yadi, keyin o'g'lining o'ng yelkasiga uzatadi, u esa beshikni chaqaloqning onasiga beradi. O'tmishda mehmonlarning barcha niyatlari toza va yaxshi bo'lishi uchun ular yuziga oq un surar edilar. Mehmonlar mehmonxonaga yasatilgan dasturxonga taklif etiladi va mehmonlar ovqatlanib, sozandalarni tinglab, bazm qilib o'tirgan paytda qo'shni xonada kampirlarning ishtirokida bolani yo'rgaklash va beshikka solish marosimi o'tkaziladi. Marosim oxirida mehmonlar bolani ko'rish uchun oldiga kiradilar, unga sovg'alarni beradi va beshikning ustiga parvarda yoki qand sepadilar. Shu bilan marosim tugab, mehmonlar uy-uylariga qaytadilar. *Beshik* bola oyoqqa turguncha yotadigan, yashaydigan joyi boshpana uyidir. Shu kungacha

zamonaviy xurofotchilar tomonidan zararli atalib kelgan beshik ajdodlarimiz kashfiyotlari orasida alohida o‘rin tutadi. Mustahkam, qulay, yaxshi, hosiyatli bitta beshik bir oiladagi o‘n farzandnigina emas, uch-to‘rt avlodni tarbiyalab, voyaga yetkashishi mumkin. O‘zbek xalqi shuning uchun beshikni muqaddas bilib, uni hech qachon yosh chaqalog‘i bo‘lmasa ham tashlab yubormaydi. Hamisha o‘zi bilan birga olib yuradi. Urf-odatlarimiz, milliyligimiz, an’analarimiz, udumlarimiz, marosimlarmiz, bizga ajdodlarimizda qolgan muqaddas merosimizdir. Ularni asrab avaylashimiz, avlodlarga nuqsonsiz yetkazishimiz burchimiz. Qadriyatlar so‘nmas chiroq.

Qoraqalpoq xalqlarida ham bolani beshikka solish marosimi alohida tayyorgarlik bilan, mas’uliyat bilan o‘tkaziladi. Bola beshikka solinishda ham juda ko‘p urf-odatlar amalga oshiriladi. Masalan, bola beshikka solingandan keyin “beshikdagi bola” otga o‘xshatib choptiriladi. Buning uchun maxsus tayinlangan Yoshi ulug‘ insonlar tayinlanadi. Bunday maqsad: yuzdan yugurik, mingdan tulpor bo‘lsin deya niyat qilinadigan bo‘lgan¹. Shunday qilib “*Qum sotaman*” buvisi arava bilan haydayman, olasizmi? deb, beshikning ustiga minib chopgan va

*Qane adamlar er bolsanlar,
Balani satip alin’lar
Deya qo‘shiq aytadigan bo‘lishgan.
Qumsataman, kim aladi,
Qanday sarpay jabadi,
Kewlimdi qalay tabadi,
Yamasa uyatqa qaladi?
Yoki boshqa variantlarda:
Er bolsanlar adamlar,
Balani satip alin’lar,
Shamalarin’ kelmese,*

¹Allambergnov K. Qaraqalpaq adabiyatinda aytis,-N: Karakalpakstan, 1989,-22b.

Jollarin'nan qalman'lar.

degan xalq tomonidan ijod qilingan beshik qo'shiqlari mosligi va o'ziga xosligiga qaramasdan, o'yin-kulgu uchun aytilgan. Bolaning ota-onasi va boshqa qarindoshlari 7-8 nafar bo'lib chaqaloqni sotib olishadi. Keyin kampirlar bolaning ustidagi kiyim-kechaklarini uy egalariga qaytarib berishadi, Bolani beshikda qoldirib yo'li ochilsin deya yo'locharlar taqdim qilib, xalqning halol farzandi bo'lsin deya tilaklar bildirishgan.

Joritqanda jolin' bolsin,

Qidr ata joldasin' bolsin,

Qirq shiltanlar qolin'da bolsin,

Ot, jala, suw ba'lesinen saqlasin, qudayim. -deya patir berib yakunlashadi. Albatta, inson dunyoga kelgan kundan boshlab ona allasi bilan ulg'ayadi. Alla bu juda erta davrlardan buyon saqlanib kelinayotgan, onalarimizning eng muqaddas dasturlaridan biri. Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi adabiyotidagi beshik qo'shiqlari bilan allasi qoraqalpoq yozma adabiyotidagi beshik qo'shiqlarining bog'liq ekanligi va shakliy mazmuniy tomondan bir-biridan ajralmasligini ta'kidlashimiz lozim. Sababi, asrlar davomida yashagan xalq o'z bolalarining odob-axloqli, chiroyli, go'zal bo'lishini, o'z elini himoya qilishini, mehnatkash bo'lishini azaldan orzu qilishgan.

Hozirgi kunda esa, mazkur xalqning o'ylagan orzu-hayollarini bizning xalqlarimiz ham orzu qilishmoqda. Shu sababdan ham beshik qo'shiqlari asosiy o'ziga xosliklari bir-biriga o'xshaydi. Masalan, qoraqalpoq yozuvchisi Jaqsibay Oteniyazovning "*hayyiw-hayyiw*" she'rini olib qaraylik²:

Hayyiw-hayyiw jan balam,

Hayyiw aytar sag'an anan'.

Diydarin'a men quwandim,

Uyqlayg'oy janim shiyrin balam.

Aymalayin-ayalayin,

Boylarin'a men qarayin,

² Oteniyazov X. hayiw-hayiw balam. Qaraqalpaqstan-1995,-26b.

O‘mir jasin uzaq bolsin,

Ko‘zlerin‘e nur bolayin.

-deya musiqasi bilan sokin shaklda kuylaydi. Mazkur qo‘shiqda asosan onaning ko‘ngli bolada ekanligi, o‘z farzandini jonidan ham ortiq ko‘rishini, shuning uchun ham o‘z bolasining salomatligini, umrining uzoq bo‘lishini tilab qo‘shiq shaklida hirgoyi qilingan.

Aq besikke bo‘lep anan‘,

Terbetedi seni balam,

Nasiyatlap har bir so‘zin,

Uyqlatadi seni balam,

Jigerli bol sen balam,

Anan‘nin‘ aytqan aqili,

Yadinda saqla, jan balam.

-deya nasihatimiz mavzular ohanggida, pand-nasihat shaklida kuylangan.

Ya‘ni farzandining aqlli, komil inson bo‘lishini istagan.

Tu‘n uyqun‘di to‘rt bo‘lip,

Besigimdi terbettin,

Mehrin‘di mag‘an berip,

A‘lpeshledin‘ o‘sirdin‘

Ertek aytip oynattin‘

Erkeletip soylettin‘,

Keleshekte o‘mi‘rden,

O‘z ornimdi ko‘rsettin‘,

Menin‘ ushun bag‘ egip,

Meywesi‘n berdin mag‘an,

O‘mirimde tawsilmas,

Alg‘is sezim ko‘p sag‘an.

-deya olqish shaklida ham aytiladi. Ya‘ni bu voyaga yetgan bolaning ota-onasiga degan muhabbat tuyg‘usi, ikkinchidan farzandning jamiyatda o‘z o‘rnini

topib ota-onasini va o'zining maqsadiga, orzu-havaslariga erishayotganligi aytiladi.

Alla go'dak (bola)ni uxlatishda yakka usulda, mayin ohang va past ovoz bilanaytiladigan qo'shiq. Dunyodagi har bir xalqning o'z allasi bor. Turkiy xalqlar, xususan o'zbeklar ham qadim-qadimdan bolaning nafaqat tanasi, balki ruhiy olami –ma'naviyati ham sog'lom bo'lishiga alohida e'tibor qaratishgan. Ajdodlar bolako'nglining sog'lom va toza bo'lib shakllanishida beshikdalik paytida eshitgan allasimuhim o'rin tutishini juda yaxshi bilishgan. O'zbek onalari tilidan aytilganallalarda uning orzusi, to'kis odam haqidagi ideali aks etgan deyish mumkin. O'zbekallasida ona qalbining harorati, tilaklarining samimiyati va bolasiga chin insoniysifatlar yor bo'lishini istashidagi haqqoniyat mavjud. *Alla* matnini chaqaloq (bola) tushunmasligi mumkin, lekin *alla* mohiyatiga singdirilgan ona muhabbatini, undagi shukronalik tuyg'usini ko'ngli bilan his qiladi. Allada onaning mehr-muhabbati bilan birga uning quvonchi, g'ururi, ayni chog'da dardi, alami, o'kinchi, orzu-armonlari ham o'z ifodasini topishi mumkin. Ma'lumki, har qanday ona oilasini farzandi uchun asraydi-ardoqlaydi. Ona qalbidagi shukronalik hissi bilan unga berilgan eng oliy ne'mat – farzandi uchun Xudodan jamiki yaxshi sifatlarni so'raydi va buni allasida mujassamlashtiradi.

Alla aytay, jonim bolam,

quloq solgin, alla

Shirin allam tinglab asta,

uxlab qolgin, alla

Ko'zlariga tomgan suvga hayron bo'lma,

alla-ya

Baxtinga sen katta bo'lg'in, hazon bo'lma, alla

Tushov kesish. Mazkur marosim o'zbek va qoraqalpoq xalqlarida ham mavjud bo'lgan. Ammo bugungi kunga kelib o'zbek oilalarida bu marosim biroz unutilganday ko'rinadi. Ammo vodiy tomonlarning Kosonsoy, Pop, Chust tumanlarida hali-hanuz o'tkazilib kelinishi haqidagi ma'lumotlar mavjud³. Bola

³ A.AShirov. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. Toshkent-2007. 85 bet.

atak-chechak turib, toy-toy bosib yura boshlagan vaqtdagi urf-odatlarining biri hisoblanadi. Bolaning dastlabki qadamlari quvonchli tarzda kutib olingan. Shu sababga ko‘ra bolakayning bemalol yurib ketishini tilab, tushov kesdi⁴ qilingan. Bu marosim asosan chorshanba kunlari bajarilgan.

Qoraqalpoq xalqlarida bu marosim “tisaw kesti” deb aytiladi⁵. Tisaw kesishdan oldin tashkiliy ishlar olib boriladi. Uning uchun oldin bir nechta xil iplardan olib uni kesish uchun avvaldan kimdir tayinlanadi. Tisawni kimga kestirishni kattalar hal qilishadi. Odatda bunday marosimni yutuqlari ko‘p, ko‘pni ko‘rgan, hurmat-e‘zozdagi insonlar tanlanadi. Tisaw kesiw irim sifatida ko‘p yillar qo‘llanilgan, hatto bugungi kunda ham har bir qoraqalpoq oilalarida bu marosim bajariladi. Sababi, tisawi kesilgan inson chaqqon, ziyrak, aqlli, donishmand, hunarmand, olg‘ir bo‘lib voyaga yetadi degan qarashlar mavjud bo‘lgan. Tisaw kim tomonidan kesilsa bolaning keyingi hayot yo‘li ham o‘sha insonnikiga o‘xshashini niyat qilishgan. Bu marosim ikki usulda amalga oshiriladi:

- 1. Yoshi katta kishilarga tisaw kestirish;**
- 2. Yoshi kichik bolalarga tisaw kestirish;**

Birinchi xil ko‘rinishda tisawi kesilayotgan bolaning oyoqlariga iplar bog‘lanib shu joyda rasm rusmlari ado qilinib, iplar kesiladigan bo‘lgan. Tisawni kesgan insonga hurmat yuzasidan sovg‘a salomlar berilgan. Ikkinchi shaklda esa, ko‘chada yugurib yurgan bolalarni yig‘ib shular orasidan chaqqon bolaga kestirilgan va bolalarning barchasiga sovg‘alar ulashilgan. Bu marosimlarning har ikki shakli hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. Tisaw kesgan odam marosim vaqtida quyidagi qo‘shiqni aytgan:

G‘az-g‘az balam, g‘az balam,

Qurisqan boydi jaz balam,

Tisawin‘di keseyin,

Adimin‘di ko‘reyik,

⁴ Tushov-ot va mollarning uzoqqa ketib qolmasligi yoki umuman yurmasligi uchun ularni oldingi yoki orqa oyoqlarini tutash tirib bog‘lab qo‘yiladigan arqon nomi.

⁵ Teubayev A. T. Реликты доисламский верованый в семейной обрядности казахов... стр 79

*Ko‘z tiymegey tukireyin,
G‘az-g‘az balam, g‘az balam,
Qurisqan boydi jaz balam.*

Mazkur qo‘shiqni aytib bolakayni yurishga odim bosishga undashgan. Bunday marosimlar bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini orttirib, kelajakka degan ilk qadamlari deya ishonishgan. Tisawi kesilayotgan bolaning oyoqlari ostiga 1,5-2 metr atrofida oq mato to‘shaladi. Bu bolakayning yo‘li ochiq bo‘lsin, toza, tekis bo‘lsin degan ma‘noni anglatadi. Mazkur matoni qoraqalpoq xalqida ko‘pni ko‘rgan insonlarga ishonib topshirishadi va matoni o‘sha odam avvaldan tayyorlab qo‘yishi kerak bo‘ladi⁶. Tisaw kesgan shaxsga to‘y egalari bosh-oyoq sarpo berishadi. U ham o‘z navbatida tisawi kesilayotgan bolakayga o‘z nomidan sovg‘a-salomlar olib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi “, ikkinchi qism, davlat ilmiy nashriyoti 2018.
2. Mahmud Sattor, O‘zbek udumlari. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti 1993.
3. Mamatqul Jo‘rayev, Darmonoy O‘rayeva, O‘zbek mifologiyasi. Toshkent “Excellent pygrophy” nashriyoti 2020.
4. Чилла ва у билан боглик расм-русумлар ва урф-одатлар тУгрисида батафсилрок каранг; О.Бурнее. Чилла нима/Соадат 1993 (А.Аширов. “O‘zbek xalqining qadimiy e‘tiqod va marosimlari 79. Bet)
5. Назаров Н. Лакайлар этнографияси.-Т..2007.-Б.8 8. Жураев М. Соч магияси билан боглик; маросимлар //Узбекистон этнологияси. Янгача карашлар ва назарий методологик ёндашувлар. Тошкент. 2004.

⁶ТеубаевА.Т. Реликты доисламский верованый в семейной обрядности казахов...стр 79